

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING MOLIIYAVIY
HISOBI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 – “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi
5A340904 – “Tashqi iqtisodiy faoliyat hisobi va tahlili” magistratura
mutaxassisligi uchun**

Tashkent – 2003

Tuzuvchi: dots. Qo'ziev I.N.
Taqrizchilar: dots. Hamdamov B.,
prof. Hasanov B.A.

Ushbu dasturda xalqaro standartlar asosida mamlakatimizda hisobni tashkil qilish doirasidagi «**Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi**» faniga doir tegishli uslubiy axborotlar qamrab olingan.

Jumladan, fanni o'qitishning maqsad va vazifalari, uni o'rganish bo'yicha talablar, magistrantlar egallashlari kerak bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar hajmi fanni o'qitishda foydalanish zarur bo'lgan yangi texnologiyalar, adabiyotlar ro'yxati, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni atroflicha yoritilgan.

В данной программе охвачена важная методическая информация, касающаяся дисциплины «Финансовый учет внешне-экономической деятельности».

В частности, всесторонне раскрыты цели и задачи обучения, объем теоритических знаний и практических навыков, которыми должны владеть магистранты, а также новые технологии, список литературы, содержание лекционных и практических занятий.

The given program concludes the important methodical information, concerning the discipline «Financial account of foreign trade activity».

In particular the purposes and tasks of training, theoretical background scope and practical skills, the students need to have own, and also new technologies, the list of the literature, the contents of lecture and practical classes are included.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul, 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'zbekiston mustaqilikka erishgach, bozor iqtisodiyoti negizida xalqaro munosabatlar ham rivojlanib bordi. Shu boisdan har tomonlama bilimdon iqtisodchi-mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ham ahamiyati ortmovda. Bu iqtisodchilar mamlakatimiz boyligining butligini ta'minlab, uni ko'paytirish va yanada samarali foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishlari zarur.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

«Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi» fanining maqsadi tashqi faoliyatda moliyaviy hisobni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, tamoyillari va usullari hamda muammolari bilan magistrantlarni tanishtirishdan iborat.

Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Magistrant «Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisob» fani yuzasidan quyidagi tushunchalar mohiyatini bilishi kerak:

- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar hisob siyosatining o'ziga xos xususiyatlari;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisobning o'ziga xos xususiyatlari;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda hujjatlarning aylanish tartibi;
- eksport va import operatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari;
- eksport operatsiyalari hisobi;
- import operatsiyalari;
- reeksport operatsiyalari;
- reimport operatsiyalari;
- eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar hisobini o'ziga xos xususiyatlari;
- import operatsiyalari bo'yicha xarajatlar hisobini o'ziga xos xususiyatlari;
- bojxona to'lovlari va tartibi;
- valyuta operatsiyalari va kurslar o'rtasidagi farqlarining hisobi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda bo'yicha moliyaviy natijalarni shakllanishini o'ziga xos xususiyatlari;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha moliyaviy natijalar hisobining o'ziga xos xususiyatlari.

Magistrant quyidagilardan foydalana olishi kerak:

- tashqi iqtisodiy faoliyatda buxgalteriya hisobining usul va uslubiyatlaridan;
- tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisobni yuritishda xalqaro standartlaridan;
- jahon bozorining talab va takliflarini o'rganish va tahlil usullaridan;
- xorijiy sheriklarning talab va takliflarini o'rganish usullaridan;
- xalqaro hisob-kitoblarni tashkil qilish usullaridan;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq hujjatlarning aylanish tartibidan;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq moliyaviy natijalarni shakllantirish usullaridan.

Magistrant quyidagi malakaga ega bo'lishi kerak:

- O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat va uni rivojlantirish borasida qabul qilingan qonun-qoidalar, ko'rsatma va Nizomlardan foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasidagi hisob tizimi va uni tashkil qilish bo'yicha qabul qilingan qonun, standart, ko'rsatma, Nizomlar bo'yicha axborot bera olish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarining o'ziga xos hisob siyosatini yuritish xususiyatini tahlil qilish;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarining mulklari shu jumladan, moddiy va mehnat zahiralardan samarali foydalanish usullari mohiyatini tushuntirib bera olish.

Mazkur fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi

«Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisob» fani o'quv rejadagi quyidagi fanlar bilan yaqin aloqada bo'ladi: «Tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqaruv hisobi», «Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy tahlil», «Tashqi iqtisodiy faoliyatda boshqaruv tahlili», «Tashqi iqtisodiy faoliyatda hisobot», «Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi», «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari», «Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari».

Fanni o'qitishda innovatsion texnologiyalar

«Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi» fanini o'qitishda fanning, magistratura ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olingan innovatsion usullar qo'llaniladi. Ochiq va muammoli darslarni tashkil qilish, kompyuter texnikasi va internet tizimi hamda vertual kutubxonadan foydalanish, ishbilarmonlik o'yinlari, davra suhbatlari, keys-stadilardan foydalanish shular jumlasidandir.

«Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi» fanini o'qitishda foydalaniladigan innovatsion texnologiyaning tarkibmy qismlari quyidagilardan iborat:

- o'quv maqsad va vazifalari katalogini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- tayanch iboralarni ishlab chiqib, magistrantlar tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga erishish;
- magistrantlarga «**1S:Buxgalteriya**», «**Turbo-Buxgalteriya**» va boshqa dasturlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

Fanni o'qitish bosqichi va uslubiy ko'rsatmalari

«Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi» fani ikkinchi kursning birinchi semestrda o'qitiladi.

«Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi» fanini chuqur egallashda esa, quyidagi fanlarni o'qib o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi: «Buxgalteriya hisobining nazariyasi», «Moliyaviy hisob», «Boshqaruv hisobi», «Korxonada xo'jalik faoliyati tahlilsh», «Audit», «TIFda buxgalteriya hisobi» va boshqalar.

Fanni o'rganishda ilmiy-amaliy ma'lumotlar, yangiliklar va tajribalardan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Fanni o'rganishda xorijiy iqtisodchi olimlarning «Hisob», «Hisobot», «Tahlil» va «Audit» fanlari bo'yicha bajargan shshiy ishlarni o'rganish talab etiladi.

Profesor-o'qituvchining vazifasi fanga taalluqli yangiliklar bilan doimo tanishib borish va izlanish hamda bu havda talabalarga ma'lumotlarni etkazib berishdir. O'quv jarayonini o'zlashtirishni bfholash reyting tizimi asosida tashkil qilinadi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha soatlar hajmi

O'quv yuklamasining umumiy hajmi va taqsimoti "**Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi**" fani bo'yicha jami 152, shundan 76 - ma'ruza, 76 - amaliy mashg'ulot 76 - soat mustaqil ta'limga ajratilgan.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari

Fanning predmeti va vazifalari

Tashqi iqtisodiy faoliyatda olib boriladigan hisobot siyosati

«Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisobot» fanining vujudga kelishi va vazifalari. Hisob siyosati to'g'risida tushuncha. Buxgalteriya hisobining 1-milliy standarti va uning mazmuni. Hisob siyosatining korxonani boshqarishdagi vazifasi va o'rnini. *Hisob siyosatiga ta'sir etuvchi omillar*. Tashqi iqtisodiy faoliyatda hisob siyosatini olib borishning o'ziga xos xususiyatlari.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisobni tashkil etish va uning o'ziga xos xususiyatlari

Tashqi iqtisodiy faoliyatning moliyaviy hisobi fanining predmeti, ob'ekti va usullari. Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy

hisobni tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari. *Tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalaniladigan o'lchov birliklari va dastlabki hujjatlar*. Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisobni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Eksport-import operatsiyalari to'g'risida tushuncha

Eksport operatsiyalari to'g'risida tushuncha. Import operatsiyalari to'g'risida tushuncha. Xalqaro hisob-kitoblarning shakllari. *Bojxona to'lovi va tartibi*. Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish me'yoriy hujjatlarining to'plami. Eksport-import operatsiyalarini rasmiylashtirish tartibi. Reeksport operatsiyalari. Reimport operatsiyalari.

Eksport operatsiyalarining hisobi

Eksport operatsiyalari hisobining vazifalari, predmeti va ob'ekti. Eksport operatsiyalariga qo'yiladigan talablar. Eksport operatsiyalarini baholash. Eksport tovarlari qiymatining shakllanishi. Eksport tovarlarini jo'natish tartibi va usullari. Eksport operatsiyalarini hisobga olishdagi schyotlar tizimi va ularni bog'lanishi.

Ortib jo'natilgan eksport tovarlari (xizmatlari) hisobi

Xorijga jo'natilayotgan eksport tovarlari bahosining shakllanish tartibi va hisobi. Ortib jo'natilgan eksport tovarlari bo'yicha hisob-kitob turlari va shakllari. Bojxona bojlarini to'lash tartibi va hisobi. Eksport tovarlarini jo'natish bo'yicha dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi. *Eksport tovarlarini sotishdop tushgan mablag'larni rasmiylashtirish va hisobga olish*. Sotilgan mahsulotni hisobga olish usullari. Barter operatsiyalari hisobi. Eksport tovarlarini naqd pulga sotish operatsiyalari hisobi. Kreditga sotilgan eksport tovarlari hisobi.

Eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar hisobi

Xarajatlarning guruhlanishi. Eksport tovarlari tannarxi hisobi. Ustama xarajatlar hisobi. Eksport tovarlari (xizmatlari) tannarxining shakllanish tartibi. Eksport tovarlari (xizmatlari) bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish usullari. *Eksport operatsiyalari buyicha moliyaviy natijalarni aniqlash usullari*. Eksport operatsiyalari bo'yicha moliyaviy natijalarni hisobga olish.

Eksport operatsiyalari bo'yicha xorijiy xaridorlar bilan hisob-kitoblar

Hisob-kitob shakllari va ularning hisobini tashkil etish. Xorijiy xaridorlar bilan hisob-kitoblarning shakllari. Eksport tovarlarni naqd pulga etkazib berishni tashkil etish. *Tovarlarni vositachi tashkilotlar orqali eksport qilish*. Xorijiy xaridorlar va vositachi tashkilotlar bilan hisob-kitoblarni tashkil etish va yuritish.

Import tovarlari (ish, xizmatlari) hisobi

Import operatsiyalari hisobini tashkil etish. Import operatsiyalari hisobini yuritishning predmeti, ob'ektiva vazifalari. Import tovarlar (ish, xizmatlar)iga qo'yiladigan talablar. *Import tovarlari qiymatining shakllanishi*. Import tovarlarining kirim qilinishi tartibi. Import operatsiyalarini hisobga olishdagi schyotlar tizimi va ularning o'zaro bog'lanishi.

Import operatsiyalari bo'yicha xarajatlar hisobi

Import tovarlari bo'yicha xarajatlarning turlari. Import bojxona tariflarining shakllanishi. Import operatsiyalari bo'yicha xarajatlar va ularning qoplanishini hisobi. Import operatsiyalari bo'yicha ustama xarajatlar hisobi va ularni taqsimlash usullari. Import tovarlari bahosining shakllanishi va hisobi.

Import tovarlari yuzasidan xorijiy mol etkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar.

Import tovarlari yuzasidan hisob-kitoblarning turlari va shakllari. Import tovarlarni naqd pulga kirim qilish hisobi. Tijorat krediti sharoitida import uskunalarini sotib olish buyicha operatsiyalar hisobi. Import operatsiyalarini vositachi orqali sotib olish hisobi. Import operatsiyalarining barter usuli. Import operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar hisobi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda valyuta operatsiyalarini hisobga olish

Valyuta operatsiyalari haqida tushuncha, ularning korxonada faoliyatini rivojlanishidagi vazifasi va ahamiyati. Bankda valyuta schyotini ochish tartibi. Xorijiy valyutalarni qayta baholanishini hisobi. Valyuta operatsiyalarini tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda rasmiydashtirish tartibi. Valyuta operatsiyalari hisobini tashkil etish. Valyuta operatsiyalarini hujjatlashtirish. Valyuta kursi farqlari hisobi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha moliyaviy natijalar hisobi

Eksport va import operatsiyalari bo'yicha moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi. Moliyaviy natijalarni aniqlash usullari. Moliyaviy natijalarni hisobga olish tartibi. Moliyaviy natijalarning taqsimlanishi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha olingan moliyaviy natijalarni hisobotda aks ettirish.

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

Tashqi iqtisodiy faoliyatda olib boriladigan hisob siyosati

Hisob siyosati to'g'risida tushuncha. Buxgalteriya hisobining I-milliy standarti va uning ahamiyati hamda mazmuni*. Hisob siyosatining korxonani boshqarishdagi vazifasi va o'ri. Hisob siyosatiga ta'sir etuvchi omillar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisobni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Fanning predmeti, ob'ekti va usullari. Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisobni tashkil qilishning nazariy va uslubiy asoslari*. Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisobni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

Eksport-import operatsiyalari to'g'risida tushuncha

Eksport operatsiyalari to'g'risida tushuncha. Import operatsiyalari to'g'risida tushuncha. Xalqaro hisob-kitoblarning shakllari. Eksport-import operatsiyalarini tartibga solishda me'yoriy hujjatlarining to'plami*. Eksport-import operatsiyalarini rasmiylashtirish tartibi. Reeksport operatsiyalari.

Eksport operatsiyalarining hisobi

Eksport operatsiyalari hisobining vazifalari, predmeti va ob'ekti. Eksport operatsiyalariga qo'yiladigan talablar. Eksport operatsiyalarini baholash. Eksport tovarlari qiymatini shakllanishi*. Eksport operatsiyalarini hisobga olishdagi schyotlar tizimi va ularni bog'lanishi.

Ortib jo'natilgan eksport tovarlari (xizmatlari) hisobi

Xorijga jo'natilayotgan eksport tovarlari bahosining shakllanish tartibi va hisobi. Ortib jo'natilgan eksport tovarlari bo'yicha hisob-kitob turlari va shakllari. Bojxona bojlarini to'lash tartibi va hisobi. Eksport tovarlarini jo'natish bo'yicha dastlabki xujjatlarini rasmiylashtirish tartibi*. Barter operatsiyalarini hisobi. Eksport tovarlarini naqd pulga sotish operatsiyalarini hisobi. Kreditga sotilgan eksport tovarlarini hisobi.

Eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar hisobi

Xarajatlarni guruhlanishi. Eksport tovarlari tannarxini hisobi. Ustama xarajatlar hisobi. Eksport tovarlari (xizmatlari) tannarxini shakllanish tartibi. Eksport tovarlari (xizmatlari) bo'yicha xarajatlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish usullari*. Eksport operatsiyalari bo'yicha moliyaviy natijalarni hisobga olish.

Eksport operatsiyalari bo'yicha xorijiy xaridorlar bilan hisob-kitoblarni hisobi

Hisob-kitob shakllari va ularning hisobini tashkil etish. Xorijiy xaridorlar bilan hisob-kitoblarning shakllari. Eksport tovarlarni naqd pulga etkazib berishni tashkil etish*. Xorijiy xaridorlar va vositachi tashkilotlar bilan hisob-kitoblar hisobini tashkil etish va yuritish.

Import tovarlari (ish, xizmatlari) hisobi

Import operatsiyalari hisobini tashkil etish. Import operatsiyalari hisobini yuritishni vazifalari, predmeti va ob'ekti. Import tovarlar (ish, xizmatlar)igaga qo'yiladigan talablar*. Import tovarlarini kirim qilinishini tartibi. Import operatsiyalarini hisobga olishdagi schyotlar tizimi va ularning o'zaro bog'lanishi.

Import operatsiyalari bo'yicha xarajatlar hisobi

Import tovarlari bo'yicha xarajatlarning turlari. Import bo'xona ta'riflarining shakllanishi. Import operatsiyalari bo'yicha xarajatlar va ularni qoplanishini hisobi. Import tovarlari bahosini shakllanishi va hisobi*.

Import tovarlari yuzasidan xorijiy mol etkazib beruvchilar bilan qisob-kitoblar

Import tovarlari yuzasidan hisob-kitoblarning turlari va shakllari. Import tovarlarni naqd pulga kirim qilish hisobi. Import operatsiyalarini vositachi orqali sotib olishning hisobi*. Import operatsiyalarining barter usuli. Import operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar hisobi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda valyuta operatsiyalarini hisobga olish

Valyuta operatsiyalari haqida tushuncha, ularning korxonada faoliyatini rivojlanishidagi vazifasi va ahamiyati. Valyuta schyotini bankda ochish tartibi. Xorijiy valyutalarni qayta baholanishini hisobi*. Valyuta operatsiyalari hisobini tashkil etish. Valyuta operatsiyalarini hujjatlashtirish. Valyuta kursi farqlarining hisobi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha moliyaviy natijalar hisobi

Eksport va import operatsiyalari bo'yicha moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi. Moliyaviy natijalarni aniqlash usullari. Moliyaviy natijalarni hisobga olish tartibi.* Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha olingan moliyaviy natijalarni hisobotda aks ettirish.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Fanni o'rganishda magistrantlari amaliy yordam tariqasida «Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisob» fani bo'yicha qo'llaniladigan turli xil shakl, chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi va foydalaniladi.

Magistrantlar «Tashqi iqtisodiy faoliyatda moliyaviy hisob» fanini o'rganishda axborot vositalaridan, ya'ni Internet tizimidan ham keng foydalanadi. Unda quyidagi sayt va elektron pochta mavjud:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board)
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom)
4. <http://www.iasc.Org.uk> (International Accounting Standards Committee)
5. www.uza.uz- (Uzbekistan milliy axborot agentligining turli sohalarga doyr kundalik yangiliklari)
7. www.cer.uz- (Iqtisodiy izlanishlar markazi)
8. www.pravo.eastink.uz- (Iqtisodiy qonunlar to'plami)
9. www.referat.uz- referatlar to'plami va boshqalar.

Shuningdek, respublikamizda chop etilgan gazeta va jurnallardan mutaxassislikka doir materiallar olinadi.

1. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Magistrantlarning fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB hamda OB turlari va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70%) o'qitilayotgan fanga mas'ul bo'lgan kafedra qarori bilan mavzuning murakkabligi va zaruriyligiga qarab quyidagi mezonlar bo'yicha taqsimlanadi:

- magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzularda referatlar yozish;
- ilmiy tezis (maqola)lar tayyorlash, ilmiy-uslubiy anjumanlarda chiqishlar qilish;
- ilmiy adabiyot va izlanish natijalariga annotatsiyalar yozish;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlarni tarjima qilish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash;
- fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'lim yoki qism bo'yicha magistrantlarning nazariy bilimlarini baholash.

YaBda fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan so'ng magistrantning bilim darajasi baholanadi.

YaBga ajratilgan ballar miqdori, o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 30% miqdorida belgilanadi. Barcha fanlar bo'yicha YaB bosqichi yozma ish usulida o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan (yozma ish) ni o'tkazish tartibi «Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida «yozma ish» usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom» bilan belgilanadi.

OB yozma ish usulida yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) ham o'tkazilishi mumkin.

Dekanat (markaz) belgilangan tartibda fan bo'yicha magistrantning JB, OB va YaBdagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil etib boradi va ularning natijalarini belgilangan shakldagi qaydnomalarda aks ettiradi.

Reyting natijalari oliy ta'lim muassasasining Ilmiy Kengashida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasi fanlar uchun baholash turlarining har biri bo'yicha reyting ballarini hisoblash mexanizmlarini ishlab chiqadi va uslubiy kengashda tasdiqlaydi.

Semestr o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal ballning 55 va undan yuqori foizini to'plagan magistrant "**qoniqarli**" o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan magistrant "**qoniqarsiz**" o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. // Xalq so'zi, 1996.
3. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonuni. -T.: O'zbekiston, 1991.
4. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli «Mahsulot (ish, xizmat)lar ko'rsatish, ishlab chiqarish va sotish bo'yicha mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar tarkibi haqida Nizom». -T.: 1999.
7. "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvardagi 5-sonli bo'yrug'iga asosan tasdiqlangan «Korxonalarni choraklik va yillik moliyaviy hisobot shakllarini to'lg'azish bo'yicha ko'rsatma». -T.: 1997 .
8. Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining rejasi. -T.: 2002.
9. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. -T.: 1998-1999.
10. Markaziy bankning 1998 yil 28 mart 35-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasida kassa operatsiyalarini yuritish tartibi".
11. Bobojonov O., K.Jumaniyozov Finansoviy uchet, -T.: 2001.
12. Kassovie dokumenti. -M.: Finansi i statistika, 1999.
13. Merenkov N.L. Mejdunarodnie standarti buxgalterskogo ucheta. -M.: 2000.
14. Astaxov A. Eksportnie i importnie operatsii. -M.: Eksportnoe byuro, 1996 .
15. Astaxov A. Buxgalterkiy uchet vo vneshneekonomicheskoy deyatelnosti. -M.: Eksportnoe byuro, 1999.
16. Umarova M., Eshboev U. Buxgalteriya hisobi. -T.: Mehnat, 1999.
17. G'ulomova F.G. Buxgalteriya hisobi bo'yicha amaliy qo'llanma. -T.: 1999.
18. Golubovich A.D. i dr. Valyutnie operatsii v komercheskix bankax. -M.: 1994.
19. Shirinskaya Z.G. i dr. Buxgalterskiy uchet i operatsionnaya texnika v bankax. -M.: 1996.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. **Gadoev E.F., Xasanov N.X. Boshlovchilar uchun buxgalteriya hisobi. -T.: 1996.**
2. Gadoev E.F., Yugay L. Namunaviy buxgalteriya provodkalarida schyotlar (hisobvaraqlari) rejasini qo'llashga doir tavsiyalar. -T.: 1997.
3. Gadoev E.F. va boshqalar. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini qo'llashga tavsiyalar. № 3, № 4. -T.: 1997.
4. Lazareva N.M. Albom sxem dokumentov i registrov po buxgalterskomu uchetu. -M.: Eksportnoe byuro, 1997.
5. Qodirxonov S. Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi. -T.: O'zbekiston, 1993.